

# РОССИЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ А.И. ГЕРЦЕНА



## СОВРЕМЕННАЯ НАУКА: МОДЕЛИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ

Материалы международной  
научно-практической конференции

Санкт-Петербург  
(16-мая 2025 г.)

*Nosirova Ra'no Xamidovna*  
*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti*  
*Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası*  
*dots., (PhD)*  
*+998998879672 [rxamidovna@gmail.com](mailto:rxamidovna@gmail.com)*

*Jumaboyeva Marhabo Shokir qizi*  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-kurs magistranti*  
*+998959860877 [jumaboyevamarhabo569@gmail.com](mailto:jumaboyevamarhabo569@gmail.com)*

## **BOLALARNI KELAJAK KASBLARIGA YO'NALTIRSHDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING AHAMIYATI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarni kasb tanlashga yo'naltirish jarayonida sahnalashtirish faoliyatining o'rni yoritilgan. Sahnalashtirishning psixologik-pedagogik asoslari, uning shaxsiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi roli, shuningdek, real ta'limiy-amaliy tajribalar asosida uning samaradorligi ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Sahnalashtirish, kasb tanlash, rolli o'yin, ijodiy fikrlash, kommunikativ ko'nikma, kasbiy yo'naltirish, dramatik faoliyat, uzliksiz ta'lim, integratsiya, globallashuv, konstruktivistik yondashuv.

**Аннотация:** В статье обсуждается роль ролевых игр в оказании помощи детям в выборе профессии. Рассматриваются психолого-педагогические основы постановки, ее роль в развитии личностных и социальных навыков, а также ее эффективность, основанная на реальном педагогическом и практическом опыте.

**Ключевые слова:** Драма, выбор карьеры, ролевая игра, творческое мышление, коммуникативные навыки, профориентация, драматическая деятельность, непрерывное обучение, интеграция, глобализация, конструктивистский подход.

**Abstract:** The article discusses the role of role-playing games in helping children choose a profession. The psychological and pedagogical foundations of the setting, its role in the development of personal and social skills, as well as its effectiveness, based on real pedagogical and practical experience are considered.

**Keywords:** Drama, career choice, role play, creative thinking, communication skills, career guidance, dramatic activities, lifelong learning, integration, globalization, constructivist approach.

Mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-manaviy islohotlar, fan-texnika va ishlab chiqarishning keskin ortib va rivojlanib borayotganligi – jamiyat talablariga javob bera oluvchi shaxsni tarbiyalash masalasi kelajagimiz talabi ekanligini ko‘rsatmoqda. Albatta, kelajagimiz poydevori bo‘lgan, har jihatdan ma’suliyatli, manaviy yetuk, axloqan pok, jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo‘sha oladigan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimi rivojlangan shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Chunki maktabgacha yoshdagi bolaga o‘rgatilayotgan bilim va milliy qadriyatlar uning kelgusidagi butun kelajagini belgilab beradi. Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va samarali faoliyat ko‘rsatishiga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasi prezidentining qarorlari va farmonlari qabul qilindi.”Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi qarorida milliy-madaniy, tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob

<sup>1</sup>o‘qishga qiziqishni uygotuvchi o‘quv metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatiga joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilab berildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi 1059-son qarori shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuning 4-moddasida har bir bolaning iste’dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi, maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish oila hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyaviy ta’sirining birligi keltirilgan. Bolalarni har tomonlama kamol topishi va o‘z kasblariga ega bo‘lishlari uchun hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ko‘plab o‘yinlar asosida bilim berilmoqda. Bunga yaqqol misol sahnalashtirish faoliyatidir. “Bolalarni kelajak kasblariga yo‘naltirishda sahnalashtirish faoliyati katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda globallashtirish va texnologik taraqqiyot ta’lim tizimiga yangi talablarni qo‘yadi. Ayniqsa, bolalarni kelajak kasblariga to‘g‘ri yo‘naltirish, ularning salohiyatini erta aniqlash va rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta’lim jarayonida noan’anaviy metodlardan foydalanish zarurati oshmoqda. Ana shunday usullardan biri – sahnalashtirish faoliyatidir. Dramatik o‘yinlar, teatr sahnalari, rolli mashg‘ulotlar orqali bolalar nafaqat badiiy-estetik tarbiya oladi, balki ular kelajakdagi kasb tanlovi haqida ham tasavvurga ega bo‘la boshlaydi. Bu faoliyat orqali bola turli kasblarni sinab ko‘rish, o‘zini turli rollarda tasavvur qilish, ijtimoiy holatlarni anglash imkoniga ega bo‘ladi. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyati orqali bolajonlarni keljak kasblarga yo‘naltirishda

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3261-son qarori (2017-yil 9-sentabr) – “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-son qarori (2019-yil 31-dekabr) – “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

quyidagi tavsiyalar beriladi. Ushbu nazariyalar va tavsiyalar orqali ish tartibi tuzilsa albatta samaradorlik darajasi ortadi.

**1. Sahnalashtirish faoliyatining nazariy yondashuv asoslari**-psixologik-pedagogik nuqtai nazariyasiga ko'ra Lev Vygotskiy, J. Piaget kabi psixologlar bolalarning rivojida rolli o'yinlarning ahamiyatini alohida ta'kidlagan. Ular bolalar sahnalashtirish orqali ijtimoiy rollarni o'rganadi, muloqot malakalarini rivojlantiradi, o'z-o'zini anglaydi va o'z kasbiy qiziqishlarini namoyon etadi.

**Sahnalashtirish faoliyatining mohiyati**-sahnalashtirish bu bolalarning o'zaro rollarga kirib, ma'lum ssenariy asosida ijro etadigan ta'limiy va tarbiyaviy jarayon bo'lib, bu faoliyat orqali ular real hayotga yaqin holatlarni boshdan kechiradi. Dramatik faoliyat o'z ichiga teatr o'yinlari, sahna ko'rinishlari, rolli mashqlarni oladi. Bu jarayon orqali bola o'z his-tuyg'ularini ifoda etadi, til o'zlashtiradi, mustaqil fikrlash va harakat qilishga o'rganadi. Ayniqsa, kasbga yo'naltirilgan sahnalashtirishda o'qituvchi bolalarga shifokor, o'qituvchi, haydovchi, quruvchi, oshpaz kabi kasb egalarining faoliyatini ko'rsatib beradi va bolalarga ushbu rollarni ijro etish imkonini yaratadi.

**Psixologik-pedagogik asoslar**-sahnalashtirishning psixologik asoslari shundan iboratki, bola aynan o'yinda o'zining qiziqishini, qobiliyatini namoyon eta oladi. Mashhur psixolog V.S. Muxina fikriga ko'ra, bolalar rolli o'yinlar orqali kattalar olamini aks ettirishga, o'zini kattalar o'rnida tasavvur qilishga urinadi, bu esa ijtimoiy moslashuv uchun muhimdir.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, sahnalashtirish orqali bola shaxs sifatida shakllanadi, kommunikativ ko'nikmalari rivojlanadi, nutqi boyiydi, jamoa bilan ishlash, o'z fikrini ifoda etish, muammoni hal qilish malakalarini egallaydi. Bu jihatlar kasb tanlashga tayyorlanishda muhim omillardandir.

**Kasbga yo'naltirishdagi roli**-kasbiy yo'naltirish bu bolalarga hayotda o'z yo'lini topishda ko'mak beruvchi tizimli jarayon. Sahnaga asoslangan faoliyat esa bu yo'nalishda eng samarali vositalardan biridir. Misol uchun, bolaning shifokor

rolini ijro etishi uning kasbga bo'lgan qiziqishini aniqlash, kasbning mohiyatini tushunishga xizmat qiladi.

Shuningdek, rolli o'yinlar ijodiy fikrlash, tashabbus ko'rsatish, muammoli vaziyatdan chiqish kabi malakalarni shakllantiradi. Bu malakalar esa har qanday zamonaviy kasb egasi uchun zarurdir.

**2.Konstruktivistik yondashuv**-zamonaviy ta'limda konstruktivistik yondashuv asosida bolaning bilim olish jarayoni faollashtiriladi. Sahnalashtirish bunga to'la mos: u bolaning faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini va o'zini namoyon qilishini ta'minlaydi.

**3.Kasb tanlash jarayonida sahnalashtirishning faoliyatining ahamiyati-** Kasblar haqidagi tasavvurni shakllantirish.Bolalar sahna orqali shifokor, o'qituvchi, quruvchi, olim, muhandis kabi kasblarning mohiyatini anglaydi. Bu orqali ular o'zlariga yaqin bo'lgan kasbga qiziqishni his etadi.

**4. Kasbiy kompetensiyalarni erta rivojlantirish**-rolli o'yinlar orqali bolaning kuzatuvchanligi, muammolarni hal qilish qobiliyati, ijodiy fikrlashi va boshqalarga rahbarlik qilish salohiyati shakllana boshlaydi. Bu esa kasbiy yo'nalishning tayanch bosqichini tashkil qiladi.

**5.Sahnalashtirish faoliyatining asosiy afzalliklari**-Ijodkorlikni rivojlantiradi,har bir bola sahna orqali voqealarni o'z talqinida yaratadi.Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi,sahna nutqi, jamoa bilan ishlash, auditoriya oldida gapirish,shaxsiy o'sishni ta'minlaydi,sahna orqali bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi,ijtimoiy rolni anglashga yordam beradi,turli kasblar va ijtimoiy vazifalar haqidagi tasavvuri kengayadi.

**6. Amaliy tajriba va tahlillar**-Toshkent shahri va viloyatlaridagi maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, haftasiga 1-2 marta o'tkaziladigan dramatik mashg'ulotlar bolalarning kasblarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'qituvchilar fikriga ko'ra, bunday mashg'ulotlarda faol qatnashadigan bolalar keyinchalik ham ijtimoiy faollikda yuqori natijalarni ko'rsatadi.Masalan, “Kelajak kasbim” mavzusida o'tkazilgan sahna ko'rinishida



bolalar o'zlari tanlagan kasblarni sahnada jonlantirdi. Bu esa ularning ichki dunyosidagi qiziqishlarni aniqlashda o'ziga xos test vazifasini bajardi.

## **7. Taklif va tavsiyalar**

Maktabgacha ta'lim dasturlarida sahnalashtirish faoliyatiga doimiy ravishda o'rin berish;

Pedagoglar uchun maxsus trening va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish. Sahnalashtirishga zamonaviy texnologiyalar (multimedia, animatsiya)ni integratsiya qilish. Kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlikda amaliy teatr darslari o'tkazish.

Zamonaviy ta'lim tizimida bolalarning kelajakdagi kasb tanlovi ularning erta yoshdan boshlab olgan bilimlari, qiziqishlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liq. Sahnalashtirish faoliyati- bu bolalarning ijodiy fikrlashini, ijtimoiy ko'nikmalarini va o'ziga ishonchini rivojlantirishda samarali vositadir. Ayniqsa, bu faoliyat orqali bolalar turli kasblar haqida tasavvur hosil qiladilar.

Rivojlanayotgan bolalar uchun o'yin — eng muhim o'quv vositasi. Sahnalashtirish orqali bolalar turli kasblarni “ijro qilish” orqali ularni anglaydi. Masalan, “shifokor”, “harbiy”, “quruvchi” kabi rollarda ishtirok etgan bola kasbga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi. Kasbga yo'naltirishda rolining kuchi juda katta. Bolalar sahnada kasb egalarining <sup>2</sup>harakatlari, nutqi va kiyim-kechaklarini takrorlab, ular haqida kengroq tushunchaga ega bo'ladi. Bu esa ularning hayotiy maqsadlarini erta shakllantirishga xizmat qiladi. Sahnalashtirish faoliyati ijodkorlik va nutqni rivojlantiradi. Rolli o'yinlar bolalarda sahna madaniyatini, erkin fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa har qanday kasbda muhim hisoblanadi.

---

<sup>2</sup>Abdulloeva, N. (2020). Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

G'ulomova, D. A. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida ijodiylik va dramatik o'yinlar. Toshkent: Ilm Ziyo.

.Davronova, M. (2023). Sahnalashtirish faoliyatining bolalar rivojlanishiga ta'siri. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy jurnali, №2(15), 67–72.

### Xulosa:

Sahnalashtirish faoliyati nafaqat bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi, balki ularni kelajakda tanlaydigan kasblarga ongli ravishda yaqinlashtiradi. Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalarida bu turdagi faoliyatni keng qo'llash muhim va zarurdir. Sahnalashtirish faoliyati bolalarni kelajak kasblariga yo'naltirishda kuchli tarbiyaviy va o'quviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu faoliyat orqali bola nafaqat ijtimoiy hayotga tayyorlanadi, balki o'z qiziqishini, imkoniyatini va salohiyatini anglaydi. Shu sababli, ta'lim jarayonida sahnalashtirishga kengroq o'rin berish, bolalarning kasbiy shakllanishiga kuchli poydevor yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3261-son qarori (2017-yil 9-sentabr) – “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”.

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1059-son qarori (2019-yil 31-dekabr) – “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”.

3.O'zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonuni (2019-yil) – Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyati, ta'lim mazmuni va tarbiya prinsiplari bo'yicha asosiy hujjat.

4.O'zbekiston Respublikai Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PQ-5052-son qarori-Ilm-fan sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida.

5.O'zbekiston Respublikasi Ta'limni Rivojlantirish Ilmiy-Tadqiqot Instituti tomonidan ishlab chiqilgan “maktabgacha ta'lim muassasalari uchun namunaviy o'quv dasturi”(2020)



**6.**Abdulloeva, N. (2020). Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

**7.**G'ulomova, D. A. (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida ijodiylik va dramatik o'yinlar. Toshkent: Ilm Ziyo.

**8.**Xaydarova, N. (2018). Maktabgacha yoshdagi bolalarda rolli o'yinlar orqali kasbga yo'naltirish. TDPU ilmiy jurnali.

**9.**Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.

**10.**Muxina, V. S. (1985). Psixologiya doshkol'nika. Moskva: Prosveshcheniye.

**11.**Davronova, M. (2023). Sahnalashtirish faoliyatining bolalar rivojlanishiga ta'siri. Ilm-fan va innovatsiya ilmiy jurnali, №2(15), 67–72.

**12.**Nurmatova, G. (2022). Kasbga yo'naltirishda o'yin texnologiyalari va sahnalashtirishning roli. Andijon davlat universiteti ilmiy axborotnomasi.

|     |                                                                                                                                                                                |     |
|-----|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 27. | Kuvondikov Sardorkhon<br>THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF<br>IMPROVING THE MECHANISM FOR THE DEVELOPMENT OF<br>VALEOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS             | 182 |
| 28. | Kuvondikov Sardorkhon<br>Ruxsora Ilxomjanova<br>DYNAMIC SITUATION AS A META-WAY OF PERCEPTION AND<br>UNDERSTANDING OF COMPETITIVE ACTIVITY IN MARTIAL ARTS                     | 188 |
| 29. | Kuvondikov Sardorkhon<br>Fatxullayev Fayozbek<br>CONTROL OF ATHLETES' MOTOR ABILITIES AT DIFFERENT<br>STAGES OF EDUCATIONAL AND TRAINING ACTIVITIES                            | 196 |
| 30. | Kuvondikov Sardorkhon<br>Fatxullayev Fayozbek<br>OUTDOOR GAMES AS AN EFFECTIVE MEANS OF TRAINING<br>YOUNG ATHLETES                                                             | 203 |
| 31. | Kuvondikov Sardorkhon-<br>Ilxomjanova Ruxsora<br>THE RATIO OF TRADITIONS AND INNOVATIONS IN SPORTS<br>MARTIAL ARTS                                                             | 210 |
| 32. | Nosirova Ra'no Xamidovna<br>Jumaboyeva Marhabo Shokir qizi<br>BOLALARNI KELAJAK KASBLARIGA YO'NALTIRSHDA<br>SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING AHAMIYATI                            | 215 |
| 33. | Egamberdiyeva Matluba Komil qizi<br>QAYERDA XATO QILYAPMIZ ...                                                                                                                 | 223 |
| 34. | Quralbayeva Lazzat Jarasbay qizi<br>Farmonov O'ktam Ne'matovich<br>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODKORLIKNI<br>SHAKLLANTIRISHDA KONSTRUKTIV MODELLASHTIRISHNING<br>MOHIYATI | 230 |
| 35. | Khakimova Khosiat Jurayevna<br>THE IMPORTANCE OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN<br>DEVELOPING ORAL SPEECH IN ENGLISH FOR PRIMARY SCHOOL<br>CHILDREN                                | 238 |